

TURKISTONDA JADIDCHILIK IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKAT**Yuldashev Baxtiyor Yusupjon o‘g‘li**

Guliston shahar 1-son ixtisoshlashtirilgan mакtab-internat

Oliy toifali, tarix fani o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13856465>

Annotasiya. Mazkur tezisda jadidchilikning shakllanishi, tarixi, manbalari, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy harakati ekanligi yoritilgan. Bilamizki, harakat asoschilari ilmli, ma’rifatli, o‘z fikriga ega yetuk shaxslar hisoblangan. Ularni yagona maqsad xalqni ilmli qilish birlashtirib turganligi hech kimga sir emas.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadidlar tafakkuri, M.Behbudiy, I.Gaspirstinskiy, ma’rifat, yangi usul maktablari, mustaqillik, zamonaviy ta’lim usuli.

JADIDISM SOCIO-POLITICAL MOVEMENT IN TURKESTAN

Abstract. This thesis describes the formation, history, sources, social-political, cultural-literary movement of modernism. We know that the founders of the movement were considered knowledgeable, enlightened, mature individuals with their own opinions. It is no secret that they are united by the common goal of educating the people.

Key words: Turkistan, modern thinking, M. Behbudi, I. Gaspirinsky, enlightenment, new method schools, independence, modern education method.

**ДЖАДИСТСКОЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В
ТУРКЕСТАНЕ**

Аннотация. В данной диссертации описываются становление, история, истоки общественно-политического, культурного и литературного движения модернизма. Мы знаем, что основателями движения считались знающие, просвещенные, зрелые личности, имеющие собственное мнение. Не секрет, что их объединяет общая цель – просвещение народа.

Ключевые слова: Туркестан, современное мышление, М. Бехбуди, И. Гаспиринский, просвещение, новометодные школы, самостоятельность, современный метод обучения.

Davlatchiligidimizning uchta o‘zbek xonliklari (Buxoro amirligi, Xiva, Qo‘qon) boshqaruvalarida o‘zaro birodarkushlik urush va nizolari, Rossiyaning bu davlatlarga bostirib kirishi, mintaqaning mustamlaka holatiga tushib qolishi, mustamlakachilik milliy zulmning o‘rnatalishi va uning kuchayib ketishi o‘scha qoloqlikni yanada chuqurlashtirib yuborgan edi. Qoloqlik va jaholatni, o‘lka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan

orqada qolib ketgani, islom va shariat oyoq osti qilingani va bunday og‘ir fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o‘z zamonasining ilg‘or, ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo bo‘la boshladi. Ijtimoiy uyqudan uyg‘onish, milliy uyg‘onish tarixiy zaruriyat bo‘lib qoldi.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mamlakatni mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyorilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o‘ynadi. Ma’lumki, “jadid” so‘zi “yangi”, “yangilik” ma’nolarini anglatadi. Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo‘lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramagan bo‘lsin.

Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi.

Shuning uchun ham zamonining peshqadam ziyorilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g‘oyalarni darkor hisoblangan.

Jadidlik oqim emas, harakat deb ta’kidlaydi Begali Qosimov. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidlikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3 turga bo‘lib izohlaydi:

- Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.
- Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.
- Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqди.

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarda Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo‘yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyatparvarlik harakatining bevosita ta’siri va samarasи sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralining “Tarjimon” gazetasi (1883) va u asos solgan “usuli jadid” (ikkinchi nomi “usuli savtiya”) maktabi (1884) muhim rol o‘ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy “Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G‘azit o‘qig‘uvchilarni mullalar “jadidchi” nom bilan atar edi”, degan fikrni keltiradi. Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishi ham silliq kechgani yo‘q. Bu yerda ham Buxoroda bo‘lgani kabi jadid-qadim munozaralari, ikki qatlamning o‘zaro tushunmasligi paydo bo‘lgan edi.

Jadidchilik harakatining asosiy tamoyillaridan biri ta’limning jamiyatdagi o‘zgarishlarga katalizator sifatida ko‘rilishi edi. Ular zamonaviy pedagogik usullardan foydalangan holda talabalarda tanqidiy fikrlash, izlanuvchanlik va tirishqoqlik kabi ko‘nikmalarni uyg‘otdilar.

Jadidlar ta’lim-tarbiyani faqat maktabda o‘rgatiladigan vosita emas, balki bu o‘quvchida mustaqil fikrlash va ijodkorlik ruhini kashf etish, deb hisoblagan. Ular an’anaviy fanlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarga ham urg‘u beradigan yangi turdagি jadid maktablarini Toshkent, Buxoro, Qo‘qon kabi yirik shaharlarda tashkil etdilar. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Risolayi asbobi savod” va “Kitabul atfol” nomli asarlarida an’anaviy o‘qitish usullarini isloh qilish bilan birqalikda zamonaviy ta’lim tizimini amalda qo‘llash zarurligini ta’kidlagan.

Jadidchi fidoiylar pedagoglarni o‘quvchida mustaqil fikrlash va atrof olamni savolga tuta olish qobilyatini rivojlantirishga chaqirdi. Ma’rifatparvarlar ta’lim sohasidagi gender tengligini targ‘ib qildilar, ijtimoiy mavqeyi va jinsidan qat’i nazar barcha uchun ta’limning muhimligini bildirdi. Shuningdek ular yana bir muhim jihatи ularning ta’lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ‘ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e’tiqodlarni hurmat qiladigan, bag‘rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg‘u berishgan.

REFERENCES

1. Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003.
2. D.Alimova. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. Jadidchilik: Islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet. 1999.
3. R.Shamsutdinov. Jadidchilik: Haqiqat va uydirma. Muloqot. 1991. № 11.
4. B.Qosimov. Jadidchilik. O‘zbek tili va adabiyoti. 1990. № 4.
5. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.
6. Sh.G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 2000.
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999.
8. Hoji Muin. Oila tarbiyasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1918 yil 9 iyul.